o`quv materialini innovatsion metodlari va ta`lim vositalari orqali o`zlashtirish nazarda tutiladi. (Bunda o`quv holatlari, topshiriqlari, o`quv-biluv faoliyatini o`yinli texnologiyalar, individual ta`lim texnologiyalari, shaxsga yo`naltirilgan texnologiya, muammoli ta`lim texnologiyalari, tabaqalashtirilgan ta`lim texnologiyalari orqali amalga oshirish tartibi berilishi mumkin). IV. Erishilgan natijani o`lchash me`yori (baholash usuli) - guruhlarga bo`lingan holda berilgan mavzuni «O`ylab top» strategiyasi asosida yangi leksik birliklarning ishlatalishini mashq qilish; turli loyihamalar ustida ishlash: “Seasons”, “My Family Tree”, yoki o`z qobiliyatlarini “Hello It’s me”, “My Granny is the Best” va shu kabi mavzularda esse yozish; mavzu yuzasidan tekstni tarjima qilish yoki tahlil qilish; mavzu yuzasidan og`zaki hikoya tayyorlash; berilgan vaqt doirasida testlar to`plamini bajarish; mashg`ulot davomida berilgan savollarga javob berish va h.k. O`qituvchi o`z o`quvchilarining dars jarayonidagi ilmiy – amaliy faoliyatini samarali tashkil qilish avvaldan rejalashtirilgan, aniq bir maqsadga mustaqil matn yaratishga yo`naltirish uchun har bir dars puxta rejalashtirilshi, darsni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilishi, lozim bo`lsa, yangi mashq namunalarini tanlab, qo`shimcha mashg`ulot sifatida rejaga kiritishi, darsni guruhlararo musobaqa ruhida olib borishi nihoyatda foydalidir. O`qituvchi doimiy ravishda o`quvchilarni o`rganilgan mavzu yuzasidan o`z fikrlarini aytishga undashi, ular tamonidan kiritilgan taklif va mulohazalarni, o`z iste`dodini namoyish qilishga bo`lgan urinishlarini ijobiy tushunishi, bunday ijodkorlik, kashfiyotchilik harakatlarini muttasil rag`batlantirib borishi, ularga sharoit va imkoniyatlar yaratib berishi zarur bo`ladi. Xorijiy tilni o`rgatishda amaliy mashg`ulotlarda pedagogik texnologiyalardan foydalanish o`zining ijobiy natijalarini ko`rsatmoqda. Pedagogik texnologiyalardan foydalanish nafaqat o`quvchi-talabalarga, balki o`qituvchiga ham ta`lim berish jarayonini yengillashtirib bermoqda. O`quv mashg`ulotlari pedagogik texnologiya tamoyillari va aniq maqsadlar asosida loyihalanganda o`quvchining ijodiy qobiliyatini o`stirish, aqliy salohiyatini kuchaytirish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish va har bir yangilikni tez va to`la qabul qila olish ko`nikma va malakalarini tarkib topadi. Ayniqsa, muammoli ta`lim texnologiyalarni qo`llash orqali ta`lim jarayoni amalga oshirilganda o`quvchilarda ilmiy izlanishga qiziqishi ortib, ijodiy tafakkur yuritish qobiliyatini rivojlantiradi. Natijada egallangan bilim, ko`nikma va malakalar amaliy faoliyatda tatbiq etiladi, o`zlashtirish sifati oshadi. Buning uchun o`qituvchida pedagog injinerlik mahorati bo`lishi va mavzularning mazmuniga qarab darsni to`g`ri loyihalay olishi lozim. SHuningdek, chet tilida o`quvchilarning uzaro munosabatlari va ular tomonidan berilayotgan savollarning ham inobatga olinishi talim jarayonining samaradorligini taminlashda o`ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ingliz tilini o`qitishda pedagogik texnologiyaning assosiy mohiyati talimda o`quvchilarni qiziqtirib o`qitish va bilimlarni to`liq o`zlashtirishga erishishdir. Talimda berilayotgan bilimlarni o`quvchilarning aksariyat ko`pchilik qismi puxta o`zlashtirishi pedagogik texnologiyani joriy etishning asosiya maqsadi hisoblanadi. Xulosa sifatida aytish mumkinki, biz o`z darslarimizda qo`llayotgan har bir pedagogik texnologiyalar shuningdek, axborot texnologiyalarining samaradorligini quyidagi mezonlar orqali doimiy kuzatib va takomillashtirib borishimiz mumkin bo`ladi: - o`quv materialini didaktik loyihalashda o`quv maqsadlarini to`g`ri belgilash; -ta`lim metodlari va vositalarini to`g`ri tanlash; - pedagogik texnologiya turlarini (o`yinli texnologiyalar, individual ta`lim texnologiyalari, shaxsga yo`naltirilgan texnologiya, muammoli ta`lim texnologiyalari, tabaqalashtirilgan ta`lim texnologiyalari) o`quvchilarning yoshi va bilim darajasini inobatga olgan holda to`g`ri tanlash; -o`quvchilarning ijodiy ishlarini doimiy tashkil etish; -o`zlashtirish darajasini muntazam ravishda monitoringini olib boorish; Bunday turdagи faoliyat juda ham foydali va samarali hisoblanadi, chunki u o`quvchilarning o`z natijalarini ko`rishga, olgan bilimlarni tizimlashtirishga, o`qituvchiga esa keyinchalik amalga oshiradigan faoliyatni rejalashtirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

- 1.Муминова, Ф. М. Ingliz tilini o`qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish / Ф. М. Муминова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 18 (308). — С. 590-592. 2. URL: <https://moluch.ru/archive/308/69404/> (дата обращения: 25.07.2022).



**BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA PEDAGOGIK VA
INNOVATSION TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASH**

Abduvalieva Tursunoy

Female student foreign language and literature Ferghana State University
abduvalievatursunoy@gmail.com
+998916587753

Annotatsiya: Ushbu maqolada xorijit tillarni o‘rgatishda interaktiv-innovatsion texnologiyalardan foydalishda pedagogik ustunlik haqida fikr yuritilgan

Kalit so‘zlar: pedagogik texnologiyalar, innovatsion uslublar, audio-video materiallar, darslik

Bugun yurtimizdagi har bir umumta’lim maktablari xorijiy tillarni katta qiziqish va ishtiyoq bilan o‘rganmoqda. Ta’lim muassasalariga ilk bor qadam qo‘ygan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining xorijiy tillarni qunt bilan o‘rganayotgani, bunda mashg‘ulotlarning og‘zaki va o‘yin tarzida olib borilayotgani alohida e’tiborga molik. Mamlakatimizda chet tillarni nafaqat maktablarning boshlang‘ich sinflarida, balki uzlusiz ta’limning barcha bosqichlarida mukammal o‘rgatish samaradorligini oshirish borasida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bu borada asosiy hujjat bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu qarorda chet tillarni o‘qitishda zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda innovatsion uslublarni joriy etish, chet tillarda erkin so‘zlasha olish, o‘zaro hamkorlik va muloqotni yo‘lga qo‘yishda zarur barcha shart-sharoitlarni yaratib berish kabi vazifalar alohida belgilangan. 2013-2014-o‘quv yilidan boshlab xorijiy tillarni boshlang‘ich sinfdan o‘qitala boshlangani chet tillarni puxta egallash, yoshlikdan ko‘nikma hosil qilib borish imkonini bermoqda. 1-2- sinflar uchun ingliz tilidan yaratilgan darsliklar o‘quvchilar o‘rganishi uchun osonligi, rang-barangligi, o‘yin, audio-video materiallariga tayangan holda va milliy an‘analarimizga asoslanib tayyorlanishi uning muhim jihatlaridan hisoblanadi. Chunki o‘quvchi qaysi xorijiy tilda gapirishidan qat‘i nazar, o‘zbekona ismlarni, milliy qahramonlarimiz nomini yod aytadi, xalq o‘yinlari, urf-odatlarini tushuntirib beradi. Ta’kidlamoq kerakki, xorijiy tilni o‘rganishda asos ona tili bo‘lmog‘i lozim. Bu masaladagi haqqoniy gapni Prezidentimiz bundan o‘n sakkiz yil ilgari aytib qo‘yanlar: “Shunga alohida urg‘u berishimiz zarurki, chet tillarni o‘rganish minba’d ona tilini esdan chiqarish hisobiga bo‘lmasligi lozim”. Chet tilini samarali egallash faqatgina o‘quvchining o‘ziga bog‘liq bo‘lmay, balki uni o‘rgatayotgan o‘qituvchining malakasiga ham bevosita bog‘liq. Bu maqsadga erishishda yordam beruvchi asosiy omil o‘qituvchining o‘quvchiga pedagogik ta’sirining samaradorligini oshirishdan, darslarda o‘quvchi va o‘qituvchi orasidagi muloqotning ijtimoiy-psixologik jihatdan o‘zaro mosligidan iborat. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tez charchashi, diqqatining ixtiyorsizligi, eslab qolish darajasi hali yetarli darajada rivojlanmaganligi ularning yosh va psixologik xususiyatlariga xosdir. Ma’lumki, ushbu yosh davrlarida o‘yin yetakchi faoliyat turi hisoblanadi. Negaki 3 yoshdan boshlab 6,7 yoshgacha bo‘lgan bolalarda o‘yin faoliyati va uning ahamiyati boshlang‘ich sinflatda ham yo‘qolmaydi, chunki, chet tilida o‘yinning ta’limiy imkoniyatlari keng bo‘lib, belgilanhan mavzu bo‘yicha talab etilayotgan bilim, ko‘nikma va malakalarga o‘yin orqali erishish mumkin. Ma’lumotlarda e’tirof etilishicha, chet tili bo‘yicha maxsus mashqlarni 4 yoshdan 10 yoshgacha bo‘lgan bolalarga o‘rgatish ijobjiy natija beradi. Buning uchun boshlang‘ich sinflardan boshlab chet tilini o‘rgatishda darslarda o‘yin usulidan foydalanish samarali bo‘lib, bunda bolalarning kommunikativ ko‘nikmalari, emotsiyal va aqliy imloniyatlarining safarbar etilishi, ta’limiy qobiliyatlarini, gapirish malakalari, ijodiy tashabbuskorlikni rivojlantiruvchi usul - ingliz tilining vositalari yordamida tasavvur qilish, verval, noerval kommunikatsiya shakllarini qo‘llash omillari kengayadi. Bunda lug‘at boyligi faollashib, noan’anaviy kommunikativ vaziyatda bilimlarni qo‘llashga hissiy-intellektual maqsad shakllanadi. Tasvirlab berish orqali esa o‘quvchilarni so‘z boyliklaridan foydalangan holda muloqot jarayoniga jalb qilish mumkin. Bu usul universal bo‘lib, tilning leksika va grammatika bo‘limlarini mustahmamlashga yordam beradi. Kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda shuningdek, qo‘sishlardan foydalanish - o‘quvchilar uchun uning mazmuni nima haqidaligi va qanday musiqiy shaklfaligi qiziqarli bo‘lib, ularda nimadir haqida



xabar berish, qiziqish, ya’ni kommunikatsiya omili birinchi o‘rinda bo‘lishi kerak. Qo‘sinqni yod olganda o‘quvchilar yangi ma’lumotlarga ega bo‘lishadi va bilish faoliyati kuchayadi. Masalan, qo‘sinqni yod olish jarayonida ular tana a’zolari va sezgi organlarini ingliz tilida nomlanishini bilib oladilar, talaffuz ko‘nikmalarini takommillashishiga, artikulyatsiya, ritmika, intonatsiyada aniqlikka erishish, bilimlarini mustahkamlash, so‘z boyligini oshirish, o‘qish malaka va ko‘nikmalarini rivojlantiradi, monologik va dialogik tarzda fikr bildirishga o‘rgatadi. Bundan tashqari qo‘sinq tilni o‘rganish jarayoniga bayramona ruh, noan’anaviy yondashuvni olib kirib, o‘quvchilarning emotsiyonal sohasiga ijobiy ta’sir o‘tkazadi. Bu holatlar nafaqat tilni o‘rganishga hattoki, charchoqni ham bartaraf etish imkoniyatiga ham ega. Shuningdek, darsni tashkil etishda ko‘rgazmali vositalardan maqsadga muvofiq foydalanish ham ijobiy samaradorlikga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ingliz tilini o‘rganishda boshlang‘ich davrda raqs harakatlaridan iborat bo‘lgan jismoniy mashqlardan ham foydalanish mumkin. Bunda o‘quvchilar oldiga bu harakatlarning nomini eslab qolish maqsadi qo‘yilishi lozim. Harakatlar orqali o‘quvchilar o‘zlarini erkin tutishlari, o‘qituvchi bilan birga darsni qiziqarli o‘tishiga harakat qilishlari kerak, chunki ularning ingliz tilida muloqot qilishga tayyorligi va buni xohlashligi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning chet tilida muloqot qilishini shakllantiradi. Bu esa chet tilini eshitish, o‘qish, gapirish yoki yozish kabi asosiy ta’lim shakllari yordamida emas, balki o‘qituvchi bilan, bir-birlari bilan faol va jonli muloqot orqali erishish imkoniyatini beradi. Boshlang‘ich ta’limda xorijiy tillarni o‘qitishda pedagogik va innovatsion texnologiyalarni talab darajasida shunday qo‘llash lozimki, o‘qituvchi dars jarayonida o‘quv faoliyatini didaktik maqsad, ta’limiy yoki tarbiyaviy vazifalar orqali singdirishda o‘quvchilarning tilni qunt bilan o‘rganishi, mustaqil qiziqishlari samarasini ularoq turli usullardan foydalangan holda mohirlik ila tashkil eta olsin. Albatta, bunday yuruqlarga erishish uchun avvalo, o‘qituvchi tinimsiz izlanishi va malakasini doimo oshirib bormog‘i lozim. Modomiki bugungi globallashuv jarayonini axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur etish qiyin. Ulardagi barcha manba va ma’lumotlatning asosiy qismi ingliz va boshqa yetakchi xorijiy tillarda ifodalangan. Shunday ekan, chet tillarni o‘rganish yoshlarimizning bilim doirasini kengaytiradi. Muhimi, rivojlangan mamlakatlardan qolishmaydigan darajadagi bilim va ko‘nikmalarni egallashning imkoniyatini oshiradi. Zero, til bilgan el biladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrdagi «CHet tillarini o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi PQ-1875-sonli qarori.
2. Iriskulov A.T va boshqalar Kids‘ English pupil’s book 2sinf –Toshkent —O’zbekiston;2014
3. Passov Ye.I. Kommunikativniy metod obucheniya inoyazichnomu govoreniyu. M.: Prosveshchenie,1991
4. Xoshimov O‘. Yoqubov I. Ingliz tili o‘qitish metodikasi. T., - 2003
5. Vyatyutnev M.N. Obuchenie inostrannomu yaziku v nachalnoy shkole. /inostrannyi yazik v shkole, 1990



INGLIZ TILI FANIDA YANGI METODLARDAN FOYDALANIB DARS O‘TISH USULLARI

Abidova Farangiz Lamitdinovna

Farg'ona viloyati Farg'ona shahar

42 -son umumiy o'rta ta'lif
mактабнинг инглиз тили о'qитувчиси

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lif tizimida pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlarning ahamiyati haqida mulohaza yuritilgan, shuningdek ingliz tili darslarini yangi metodlar orqali o'tish usullari keltirilgan.

Kalit so'zlar: ingliz tili, pedagogik texnologiya, metod, dars, chet tili, usul, qiziqish, o'yin, pedagog, o'quvchi.

Mamlakatimizda axborot jamiyatini shakllantirish, barcha sohalarda eng ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilayapti. Xususan, bu jarayonda interfaol xizmatlarning imkoniyatlari yuqori baholanmoqda. Ta'lif jarayoniga yangi dars o'tish usullari, yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol, innovatsion usullar kirib kelmoqda.

Chet tilini rivojlantirish orqali dunyo tan olgan davlatlar standartiga javob bera oladigan mактаб, dars, darslik yaratish biz pedagoglarning vazifamizdir. Quvonarlisi, ingliz tilida biyron so'zlasha oladiganlar mакtablarning birinchi sinfdayoq topilayotgani, tizimda ingliz tili mutaxassislarining ko'p mehnati singayotganidan dalolatdir. Ingliz tilini o'rganish bugungi taraqqiyotning asosiy shartlaridan biridir. Binobarin, yosh avlod o'rtasida ushbu fanga bo'lgan qiziqishni nafaqat oshirish, balki ularning bu yo'ldagi izlanishlarini rag'batlantirish ota-onalar qatori pedagoglar zimmasiga ham mas'uliyat yuklaydi. Shunday ekan biz ustoz-muallimlar interfaol, innovatsion va qiziqarli usullardan foydalanib, darsimizni mazmunli o'tishimiz lozim.

Bilamizki, ta'lif jarayoniga zamонавий axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini olib kirish, ulardan maqsadli va to'g'ri foydalanish, shu orqali o'quvchida chet tillarga bo'lgan qiziqishni oshirish, o'qitish samaradorligini yaxshilash eng muhim masaladir. Bugungi kunda ta'lif sohasida turli xil usullar mavjud. Ulardan dars davomida yangi mavzuni yoritishda keng va yanada qiziqishlarini oshirish maqsadida foydalanishimiz kerak.

Ma'lumki, so'nggi yillarda yurtimizda xalq ta'lifi tizimida chet tillarini o'qitishda yangi davr boshlandi, talablar, metodika o'zgardi. Bunda ilg'or pedagogik texnologiyalar, interfaol, innovatsion usullardan foydalanish talab etilmoqda. Mакtablarda ingliz tili fani 1-sinflardan boshlab o'tilayotgani buning tasdig'idir. Bilimga chanqoq o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, ularni ingliz tilining boy olamiga olib kirish o'qituvchilardan katta mehnat talab etadi. Albatta, bu boroda darslarni turli interfaol o'yinlar asosida tashkil etish ularning ishtiyoiqini yanada oshiradi, passiv o'quvchilarni faollashtiradi, sinfda o'quvchilar o'rtasida raqobat qatori o'zaro jamoadooshlik muhitini yuzaga keltiradi. Endi ingliz tili darsini mazmunli o'tkazish uchun yangi metodik o'yinlardan bir nechta misollarni ko'rib chiqamiz.

Objects? - bu qiziqarli o'yin orqali o'quvchilarning xotirasi va so'z boyligini tekshiramiz. So'z boyligimizni qanchalik oshirsak, ingliz tilida so'zlashuv mahoratimiz shuncha yaxshilanib boraveradi. O'yining shartlari: doska va sinfxonada joylashgan 15 buyumdan foydalanamiz. Buyumlarning hammasini stol ustiga qo'yib, barcha o'quvchini chaqirib, stol ustidagi buyumlarni ko'zdan kechirishlarini aytamiz, so'ng hamma buyumlarning ustini biror narsa bilan berkitamiz. So'ng o'quvchilardan eslab qolgan 15 ta buyumni qog'ozga yoki daftarlariiga ingliz tilida yozishlarini so'raymiz. 2-3 daqiqadan so'ng o'qituvchi buyumlar nomlarini doskaga yozadi va o'quvchilar o'zları yozgan buyumlar nomlarini tekshirib oladi. Eng ko'p to'g'ri yozgan o'quvchi g'olib sanaladi.

Back to back? - bu o'yin o'quvchi xotirasini charxlaydi va eshitish qobiliyatini o'stiradi. Stolga rang-barang rasmlarni chap tomoni bilan qo'yib chiqamiz, ikki o'quvchini doskaga chiqaramiz va ularning biridan rasmlarni tanlab olishini so'raymiz, ikkinchi o'quvchiga ko'rsatmasdan ular ikkita bir-biriga teskari stulga o'tiradilar. Rasmni ushlab turgan bola topishmoq usulda unda nima tasvirlanganini aytadi va ikkinchi o'quvchi eshitgan so'zlarni qog'ozga tushiradi. Eshitganlarini yaqqol va aniq tushirsa o'quvchi g'olib bo'ladi. Bu o'yinni yuqori va boshlang'ich sinflarda qo'llash mumkin.



Bingo? - bu o‘yinni o‘ynash uchun biroz tayyorgarlik ko‘rishga to‘g‘ri keladi. Ammo u juda qiziqarli. 4x4 shaklda bingo qog‘ozlarini tayyorlab va har bir katagiga so‘zlar yozish hamda o‘quvchilarga tarqatish kerak. So‘zlar takrorlanmasligi va ular o‘qilganda o‘quvchilar borlarini belgilashlari kerak. Sahifadagi barcha so‘zlarni birinchi bo‘lib belgilagan o‘quvchi g‘olib sanaladi.

Neither “Yes” nor “No” - Ushbu o‘yinda bir ishtirokchi tanlab olinadi va bu ishtirokchiga guruhdagi boshqa o‘quvchilar tomonidan savollar beriladi. U har bir savolga javob berishi shart. Ammo unga "yes" va "no" so‘zlarini ishlatalishga ruxsat berilmaydi. Agar u shunday qilsa, u o‘yindan chetlatiladi. Uning "yes" yoki "no" deyishiga sababchi bo‘lgan ishtirokchi uning o‘rnini egallaydi. Savol berayotgan o‘quvchi har doim *tag question* dan foydalanishi shart. Masalan: "You're an English student, aren't you?" "New York is a big city, isn't it?" "Jim is taller than Bill, isn't he?".

Who am I - Umumiy so‘roq gaplarni tuzish bo‘yicha malakani oshirish uchun qo’llaniladi. O‘yin uchun oldindan tayyorlangan mashhur tarixiy shaxslar yoki zamondoshlarimiz nomi yozilgan kartochkalar kerak bo‘ladi. Kartochkalar har bir o‘quvchining orqasiga bittadan yopishtiriladi. O‘quvchilar o‘zlarining kim ekanliklarini "Who am I?" savollari bilan aniqlashga harakat qilishadi. Faqat bu savollarda kutiladigan javob "Yes" yoki "No" bo‘lishi kerak.

Answer My Questions - Har bir o‘quvchi 2 tadan qog’oz parchasini oladi. 1-qog’ozga Wh-bilan boshlanadigan bitta savol, 2-qog’ozga bir-biri bilan bog’liq bo‘lmagan so‘zlar yozish kerak bo‘ladi. O‘quvchilar yozib bo‘lgach, qog’oz parchalari yig‘ib olinadi va savollar qog’ozi alohida, javoblar qog’ozi alohida tarzda aralashtiriladi. Aralashtirib bo‘lgach, har bir o‘quvchiga 1 ta savol kartochkasi, 1 ta so‘zlar kartochkasidan qaytarib beriladi. Taqsimlab bo‘lgach, o‘quvchilarning berilgan savolga 2 ta bog‘lanmagan so‘zlar bilan tasavvuriy javob topishlari uchun 2 daqiqa vaqt berilishi e’lon qilinadi.

Foydalaniman adabiyotlar

1. G.Dehkanova. Ingliz tili darslarida interfaol o‘yinlar. Samarqand 2013.
2. Felicity O’Dell, Katie Head. Games for vocabulary practice. Cambridge, 2006.
3. Maria Lucia Zaorob, Elizabeth Chin. Games for grammar practice. Cambridge, 2007.



XORIJIY TILLARNI O'RGANISHDA AKTDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Ataxanova Gullola Anvar qizi
Xorazm viloyati Urganch shahar
8-sod məktəbning ingiliz tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada xorijiy tillarini o'rganishda axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash usullari va buning natijasida til o'rganishning osonlashishi haqida fikr yuritilgan, shuningdek slaydlarning chet tilini o'rganishdagi afzalliklari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: chet tili, slayd, AKT, kompyuter, axborot, prezentsiya, fan, fikr, dars, mavzu, o'quvchi, grammatika, multimedia.

Ma'lumki, mustaqillik yillarda barcha ijtimoiy sohalarga yuksak darajada e'tibor qaratilmoqda. Jahon hamjamiyatida munosib o'rın egallash, xalqaro aloqalarni yo'lga qo'yish, xorijiy mamlakatlar tili, madaniyati va ijtimoiy hayotini yaqindan o'rganish esa davr talabi, shuningdek, ma'naviy ehtiyojdir. Darhaqiqat, axborot texnologiyalarini ta'lim tizimiga tatbiq etish o'quv jarayonining samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Hozirgi vaqtida axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish hamda keng ko'lama qo'llash jahon taraqqiyotining global tendensiyasi hisoblanadi. Yangi texnologiyalar kun sayin takomillasib, mamalakatimizda axborotlashtirish jarayoni tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda ta'lim sohasida axborot resurslarini tashkil etishga alohida e'tibor qaratmoqda. Zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalaridan chet tili darslarida ham unumli va samarali foydalish ko'pgina afzallikkarga olib keladi. Jumladan:

- o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining jadallahuviga;
- o'quv fanini sifatlari o'zlashtirilishiga;
- o'rganilayotgan mavzuning maqsad va vazifalarini to'la aks etishiga shu bilan birga til muhitini yaratishga va to'g'ri talaffuz me'yorlarini o'rganishga yordam beradi.

O'quvchining fikrlashi va nutqini rivojlantirishda ko'rgazmalilik muhim ahamiyatga ega. Bunga erishishda multimediali taqdimotlar asosida o'quvchilar nutqini, tafakkurini, xotirasini rivojlantirish va mantiqiy fikrlashga o'rgatiladi. Multimediali animatsion modellar chet tillarini o'rganish jarayonida harakatli rasmlar asosida namoyish etiladi. Masalan, "Oila shajerasi" mavzusini o'rgatayotganda oila a'zolarining yoshi, jinsi ketma-ketlikda multimedia shaklida o'quvchilarga namoyish etiladi. So'ng o'rganilgan leksikani mustahkamlash uchun mashqlar bajariladi va h.k.

Xorijiy til ta'limida eshitish, o'qish, yozish, so'zlash kompetensiyalarini egallashda axborot texnologiyalari ko'priq vazifasini o'taydi. Demak, ilg'or pedagogik texnologiya ta'lim jarayonida zamonaviy axborotni qo'llash bilan birga talabani mustaqil fikrlashga o'rgatishini talab etadi. Buning uchun, avvalo, o'qituvchi bilan talaba munosabatlarini to'g'ri tashkil etish zarur. Chunki mustaqil fikrlash individual jarayon bo'lib, unga o'rgatishda o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olish zarur. Xorijiy tilni o'qitishda ana shunday samarali usullardan biri - turli dastur maxsulotlaridan foydalangan holada (Microsoft Office PowerPoint ilovasi yordamida) dars prezentsiyasini tayyorlash va yangi materialni turli usullaridan taqdim etishdir.

Prezentatsiya bu - faollashtirilgan va eshitish yoki ko'rishga mo'ljallangan axborotni namoyish qilish maqsadida tuzilgan bir qancha slaydlar majmuyi. Bunda yangi taffakur jarayoni kechadi, o'quvchi ko'rish orqali olgan taassuroti orqali fikrlaydi. Power Pointning imkoniyatlari keng bo'lib, bu esa prezentsiyaning ekrandagi variantini rang -barang manbalar yordamida tuzish imkoniyatini beradi.

Slaydlarda o'tiladigan grammatik mavzu faqat jadval, sxema hamda konstruksiylar orqali beriladi. O'qituvchi ma'ruzachi emas, balki sharxlovchi bo'lib, o'quvchilar esa darsning faol ishtirokchilariga aylanadilar, chunki slyadlardagi qo'shimcha manbalar o'quvchilarning mustaqil ravishda xulosa chiqarishlariga yordam beradi. Slaydlar mavzularning semantik guruhanlishi va nutqdagi barcha shakllarning soddadan murakkabga qarab berilishi o'quvchining mantiqiy izchillikda grammatik qoliplarni eslab qolishiga yordam beradi.

Slaydlar bilan bir qatorda har bir berilgan gap konstruksiylaridan keyin og'zaki ravishda yoki tarqatma materiallar yordamida mavzu mustahkamlab boriladi.

O'zlashtirishi sust guruhlarga mo'ljallangan dars prezentsiyani tayyorlashda mashqlarni ham



slaydlarda berish o'qituvchiga o'quvchilarning o'zlashtirish darjalarini kuzatib turish imkonini beradi. Bunda o'qituvchi xatolarini ko'rsatib, yo'l - yo'lakay izoh berib boradi.

Slaydlarning qulayligi shundaki, qoida tarif keltirish bilan emas, balki gaplarni qiyoslash orqali beriladi, bu esa o'quvchini mustaqil fikrlashga va xulosa chiqarishga o'rgatadi. O'quvchilar mavzuni o'zlarini tahlil qilganlari uchun ham tushunadilar va eslab qoladilar. O'qituvchi esa, o'quvchilar qilgan xulosaga baho berib, xatolarni tuzatib boradi. Slaydlarga ovoz, videofilmlar ham qo'shish mumkin. Slaydlarning kichraytirilgan nusxalari va matnlar prezентatsiyaga qo'shimcha sifatida tarqatma material shaklida tayyorlanadi. Bunday dars prezентatsiyalarini tuzush bir tomonidan, qisqa muddat ichida mavzuni o'rganishga, ikkinchi tomindan esa elektron darsliklar, masofali o'qitish kabi ta'limning noan'anviy usullarini yaratishga asos bo'la oladi.

Hozirgi paytda o'qituvchining turli axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyati juda katta. Axborot texnologiyalaridan foydalanish jarayoni proeksiyon apparaturalardan tortib, kompyuter va video-filmardan unumli foydalanishni o'z ichiga oladi. Bu esa o'z navbatida til o'rganishga nisbatan qiziqishni va o'tilayotgan darslarning sifatini oshiradi, o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligini ta'minlaydi. Bunday zamonaviy texnologiyalaridan samarali foydalangan holda darslar tashkil qilinsa har bir o'quvchi o'zining ichki imkoniyati, qobiliyatini namoyon qiladi, bu esa chet tillarini intensiv o'rganishda o'z amaliy samarasini berishi, shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S.Saydaliyev. Chet tili o'qitish metodikasidan ocherklar. Namangan - 2004.
2. www.google.com
3. www.ziyonet.uz
4. www.tadqiqot.uz



**RAQAMLI TA'LIM SHAROITIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA
XORIJIY TILNI O'QITISH**

Begmatova Lola Bakhrom qizi

Toshkent shahar, Qibray tumani

25 sonli maktab Ingliz tili o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada hozirgi kunda raqamli ta'lism sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilariga xorijiy tilni o'qitish muhokama etilgan. Raqamli ta'lism sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilariga xorijiy tilni o'rgatish to'g'risida fikrlar o'r ganilib, tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lism, xorijiy til, o'qitish, axborot kommunikatsiya, intensiv rivojlanish, raqamli iqtisodiyot, internet, telnet, e-minbar, smart doska, prayektor, kompyuter, multimedya

Har sohada shiddat bilan taraqqiy etib jadal rivojlanib borayotgan bugungi kunda diqqatimizni raqamli ta'lism, raqamli iqtisodiyot tushunchalari o'ziga jalg etadi. Qisqa muddat ichida yaqol maydonga chiqib o'z o'rnnini egalladi va bugungi kungacha o'zining natijalarini ko'rsatib rivojlanishda davom etib kelmoqda.

Raqamli iqtisodiyot tushuncha nisbatan uzoq bo'limgan vaqtida, 1995-yili Massachusetts universiteti amerikalik olimi Nikolas Negroponte tomonidan aniqlab berilgan. Olim axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini intensiv rivojlanishi ortidan eski iqtisodiyotdan yangi iqtisodiyotga o'tishda, qanday o'zgarishlar ro'y berishi mumkinligini aytib o'tgan.

Raqamli iqtisodiyot - bu xo'jalik faoliyatini yuritish bo'lib, bunda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishdagi asosiy omil raqamlar ko'rinishidagi ma'lumotlar bo'lib, katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash va shu qayta ishlash natijasini analiz qilish yordamida har xil turdag'i ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, texnologiyalar, qurilmalar, saqlash, mahsulotlarni yetkazib berishda oldingi tizimdan samaraliroq yechimlar tadbiq qilishdir.

O'zbek millatining buyuk tarixi izlari darak berib turadiki buyuk o'tmishdan millatimiz ilimga chanqoqdir. Bobolarimiz bejizga "Yoshlikda olingen bilm toshga o'yilgan naqsh" dir, degan naqllari bejizga bizning zamonamizga qadar yetib kelmagan. Bu dono so'zlar o'tmishda bobolarimiz momolarimizning ilimga intlganliklari, hozirgi rivojlangan, bekamu ko'st dunyoning barpo bo'lishining ilik qadamlarini tashlaganliklaridan darak beradi.

Har bir zamoning o'ziga xos ilg'or texnologiyalari bo'lgani kabi bizning asrmizda raqamliy ta'lism tushunchasi maydonga chiqdi. Raqamli ta'lism deganda internet, telnet, e-minbar, smart doska, prayektor, kompyuter, multimediyalar, internetga ulangan televizorlar orqali reja asosida yuqori samaraga erishish ya'ni dars sifati, o'quvchilarga minimum vaqt ichida mavzu doirasida maksimal bilim berish nazarda tutiladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek raqamli ta'lism sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilariga xorijiy tilni o'rgatish to'g'risida fikr yuritadigon bo'lsak quyidagilarni sanab o'tish o'rnlidir:

1. Darsliklar elektron holatda ekranga ko'chishi
2. Foydalanuvchi hohlagan joyida va xohlagan vaqtida ta'lism olish imkoniga ega bo'lishi
3. Boshlang'ich sinfda ota-onalar birgalikda farzandlari bilan darslarni online kuzatib borishi va elekron adabiyotlardan muammosiz foydalanish imkoniyati
4. An'anaviy ta'lism sharoitida esa kichik yoshdag'i o'quvchilarni musiqa, musiqaliy o'yin, o'yinlar orqali multimedya texnologiyalari asosida dars o'tish yuqori samara berib kelmoqda va albatta bu ro'yhatni uzoq davom ettirishimiz mumkin.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan parlamentga yo'llangan murojaatnomada ta'kidlanganidek, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish O'zbekiston uchun kelgusi yillarda eng dolzarb va ustuvor yo'naliishlardan biri. Yurtimizda 2020 yil "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb e'lon qilingani ham bejiz emas. 2020 yilda AKT sohasida bir qator yirik loyihamal amalga oshiriladi.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki kichkik yoshdag'i chet til o'rganuvchilar she'rlar yod olish orqali o'zga tilni yoshlariga mos darajada yaxshi o'zlashtirib kelishgan.

Interaktiv ("inter"-vzaimniy, "akt"-deystvie—"o'zaro ta'sir" ma'nosini bildiradi) uslubiy yondashuvda o'quvchilar bilish va o'rganish jarayoniga butunlay sho'ng'ib ketadilar, ular o'zlarini bilgan va o'ylayotganlari xususida baxslashishilari ham mumkin. Interaktiv darslarda



maqsadga erishish uchun yetarli zamin yaratadi. O'qituvchi dars rejasini tuzadi (qoida bo'yicha interaktiv mashq va topshiriqlar o'quvchi o'zlashtirayotgan material bilan o'zaro bog'liq bo'ladi). O'quvchilar bajaradigan interfaol darsdagi interaktiv mashq va topshiriqlar uning asosiy tarkibi hisoblanadi. Oddiy mashq va topshiriqlardan shunisi bilan farqlanadiki, ularni bajarish jarayonida o'ragilgan material nafaqat mustaxkamlanadi, balki yana yangilari ham olinadi. Shuningdek, bu mashq va topshiriqlar interaktiv yondashuvga mo'ljallangan bo'lib, zamonaviy pedagogikada ham uning boy zahirasi to'plangan.

- Ijodiy topshiriq.
- Kichik guruhlar bilan ishslash.
- Ta'limiy o'yinlar (rolli, maqsadli va bilim beruvchi o'yinlar).
- Jamiyatdagi zahiralardan foydalanish (mutaxassis taklif etish, ekskursiyalar).
- Ijtimoiy loyihalar va auditoriyadan tashqari beriladigan ta'lim metodlari (ijtimoiy loyihalar, radio va gazetalar, fil'mlar, saxna asarlari, qo'shiq va ertaklar).
- Razminka.

Yangi materialni o'rganish va mustaxkamlash (interfaol ma'ruza, ko'rgazmali qurollar bilan ishslash, video va audio materiallar, "o'quvchi-o'qituvchi rolida", "har bir kishi har bir kishiga o'rgatadi"), mozayka (ajurali arra) savollardan foydalanish, buqrotli diolog). Murakkab va muzokara talab savol va muammolarni yechish ("fikr maktabi", "pozitsiyani egalla", "POPS" loyihalashtirilgan texnikalar, "bir o'zing, ikki kishi birligida", "pozitsiyani o'zgartir", "karrusel", "televizion tok shou uslubida munozara", debatlar, simpozium). Muammo-yechim ("yechimli daraxt", "aqliy xujum", "kazuslar tahlili", "kelishuvlar va mediatsiya") va xokazo. Ijodiy topshiriqlar deganda biz shunday topshiriqlarni tushunamizki, bunda ishtirokchilardan nafaqat oddiy axborotni qabul qilish, balki unga ijodiy yondoshish ham talab etiladi. Chunki, berilgan topshiriqlar katta yoki kichik xajmdagi o'rganilmagan elementga qoidaga ko'ra bir necha yondashuvni talab etadi.

Xulosa o'rnila shuni aytish joizki, raqamli ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilariga xorijiy tilni o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish samarali natijalarni bermoqda.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Sh.M.Mirziyoyev. "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror 28.02.2020. Toshkent
2. <http://winstyle.uz/>
3. <https://mitc.uz/uz/news/1403>



DIFFERENCES BETWEEN BRITISH ENGLISH AND AMERICAN ENGLISH

Eshmuratova Shiyirin Yusupbay qizi

Qaraqolpog'iston Respublikasi Qo'ng'irot tumani

48-maktab ingliz tili fani o'qituvchisi

Telefon:+998(90)5985588

alibeksmartv@gmail.com

Abstract: The aim of this paper is to emphasize the major differences between British and American English both in written and oral communication. Moreover, this research is intended to increase everybody's interest in studying one or another, and to be aware which English they speak and how correctly or incorrectly they speak it, depending on the purpose of their uttering. As English has become more than a trend nowadays it proved to be very interesting the analysis of what type of English we speak, what type of English we hear around us, in movies, while listening to music or even while chatting online.

Keywords: English, British, American, difference, study, language.

1. Introduction

Nowadays, English is probably the most frequently spoken language in the world, either as an official language, or as a foreign language. Speaking English has become more than a trend, more than a fashion. Relative fluency in English is getting more and more to be amust when it comes to communicating with people belonging to other nations or applying for a job. But the question is: what kind of English do we speak? For English is not at all a homogenous language.

2. Major Differences

There are lots of different varieties of English, spoken in different parts of the world, such as Australian English, South African English, Indian English and so on. However, two varieties of English are considered to be the most influential and widespread of all: Commonwealth English, generally known as British English, mainly spoken on the territory of Great Britain, and American English, the language spoken in the U.S.A. British English is also spoken across the former colonies of the British Empire (Commonwealth), including parts of Africa (Egypt and South Africa), Asia (Pakistan, India, Bangladesh, Myanmar, Singapore, Hong Kong, Malaysia and Thailand), as well as in Malta, Australia, New Zealand and Ireland, while American English is widely used in much of the East Asia (Japan, South Korea Taiwan and the Philippines), the Americas (excluding the former British colonies of Jamaica, Canada and the Bahamas) and Africa (Liberia). A more special case is Canada, where British English is used in spelling, but pronunciation and vocabulary are closer to American English. Among the international organizations, the World Bank, and the Organization of American States tend to use the American form, while other groups and organizations, such as the International Olympic Committee, NATO and the World Trade Organization use British English. As we can see, both British and American English are more or less equally spread throughout the world. Anyway, the main object of this work is not to establish the winner of a alleged competition between these two variants of English, but to explain the various differences that there are between them, differences that often lead to confusions, some hilarious, other extremely serious. For instance, there was a case of misunderstanding during the Second World War, when, according to Winston Churchill, a simple word, “to table”, caused “a long and even acrimonious argument” between the British and the American. To the former, the word means “to suggest formally in a meeting something that you would like everyone to discuss”, while for the latter, it has exactly the opposite meaning, that is, “to delay dealing with something such as a proposal until a future time”. It is even believed that the representatives of the two nations resorted to an “interpreter” during the war, to avoid further misunderstandings of this kind. Of course, it seems at least strange to us, foreign speakers of English, that two peoples speaking the same language can come this. Or are we talking about **two** languages? Are the differences between British and American English that great? Well, if we were to quote G.B. Shaw, we could say that “England and America are two countries separated by a common language”. As paradoxical as this statement might seem, it describes an obvious truth. Considering the fact that, for more than 200 years, the two countries have lived separate lives, it is natural that there are significant differences in what concerns not only the language, but also the cultural and social aspects, between the British and the Americans.



The English colonists who arrived on today's territory of the USA, back in the 17th century, had to adapt to the new circumstances, their subsequent evolution was determined by them.

3. Conclusion

On the whole, these would be the main differences between British and American English; as expected, there are others, as well, but they are subject to future research. On the other hand, however different these two varieties might seem, there is only one English language, which is presently spoken by more than a third of the world's population. Choosing what variant to speak remains a matter of preference, but a good speaker of English should know how to juggle with both or at least should know how to recognize them.

Bibliography

